61. Tibbiyot geografiyası - inson salomatligi va turli xil kasalliklarning vujudiga kelishiga ta'sir etuvchi omil va sharoitlar, ularning mamlakat hamda rayonlarda tarqalish qonuniyatlariga xususiyatlarni o'rganadi (Chaklin A.V., 1977). Nazariy jihaddan tibbiyot geografiyasini tibbiyot va geografiya fanlarining tegishli qismlariga asoslanadi. Zamonaviy tibbiyot geografik tadqiqotlar aholining salomatlik holati (kasallanish) va uni geografik omillar bilan o'zaro aloqasi, bog'liqligi, oqibatlar va ularni barabaraf etish yo'llarini aniqlash bilan belgilanadi. Bunda ayniqsa ijtimoiy-iqtisodiy omillarning hal qiluvchi rolini e'tborga olmasdan bo'lmaydi. Tibbiyot geografiyasini o'rganishda, boshqa geografik tadqiqotlarda bo'lganidek, majmuaviy, ya'ni kompleks yondashuv ham katta ahamiyat kasb etadi. Bunda ikki xil ma'no nazarda tutildi: birinchidan tadqiqot ob'ektini kompleks, atroficha, o'zaro aloqadorlikda o'rganish bo'lsa, ikkinchidan, tadqiqot jarayonida uni sintez qilish asosida ob'ektiv borilqoda mavjud bo'ladigan hududiy majmularni aniqlashdan iboratdir. Bu ayniqsa aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sohasiga ko'proq taalluqlidir. Hozirgi vaqtida nozogeografiya tibbiyot geografiyasining muhim yo'nalishi sifatida qator masalalar bilan shug'ullanadi.

Jumladan, u:-inson kasalliklar geografiyasining nazariy-uslubiy asoslarini o'rganadi; -inson kasalliklarning vujudga kelishi va geografik tarqalishida tabiyi va ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirini baholaydi; -ayrim kasalliklar geografiyasini qonuniyatlarini tahlil qiladi va tegishli (tematik) nozogeografiya kartalar tuzadi; -nozogeografiya insonlarda uchraydigan turli kasalliklarning hududiy majmumasi va nozoareallarini tadqiq etadi, rayonlashtiradi; -nozogeografik vaziyatini baholash asosida uni yaxshilashning asosiy yo'nalishlarini prognoz qiladi va x.k.

62. Bugungi kunda ham kishilar orasida ayrim yuqumli kasalliklar mavjud. Qizig'i shundaki, ko'plab kasalliklarga qarshi da'vo choralarini topilgan bo'lsada yangi-yangi kasallik turlari yuzaga kelmoqda. Jumladan, «XXasr vabosi» deb nom olgan OIV/OITS kasalligi hozirgi vaqtida insoniyat kelajagiga katta xavf solmoqda. Hozirda jahonda 45 mln. ga yaqin kishi mazkur kasallik bilan kasallangan, 30 mln. kishi esa ushbu kasallik tufayli halok bo'lgan. Afsuski, OIV/OITS ga qarshi vaksinsa hanuzgacha topilgani yo'q. Olimlar ushbu kasallik virusini xuddi biologik qurol singari insoniyat hayoti uchun xavfli, deb e'tirof etmoqdalar. Bugungi kunda ushbu kasallik O'zbekiston uchun ham jiddiy muammoga aylangan. 1987-1999 yillarda OIV infektsiyasini yuqtirgagan 76 kishi ro'yxtagi olingen bo'lsa, 2000 yildan buyon ularning soni muttasil oritib bormoqda. Birinchi marotaba virus aniqlangan 1987 yildan 2005 yilga qadar mamlakatimizda OIV virusini yuqtirganchalar soni 7600 nafara yeldi. 1987 yildan hozirgi kungacha OIV virusini yuqtirgan 574 kishi hayotdan ko'z yumdi va ularning 70 nafariga OITS tashhisi qo'yildi. Afsuski, bugungi kunda O'zbekistonda tibbiyot geografiyasini sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar ko'laminini keng deb bo'lmaydi. Shunday bo'lsada, hozirgi vaqtida mazkur sohani rivojlantirish borasida mahalliy olimlarimiz ham izlanishlar olib bormoqda. Jumladan,

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi Salomatlikni tiklash va fizioterapiya ilmiy tekshirish institutining kurort resurslarini o'rganishimoya qilish bo'limi xodimlari olib borayotgan tadqiqotlar yaqqol misoldir.

63. Siyosiy geografiyaning tadqiqot ob'yekti bo'lib hududiy siyosiy tizimlar (sistemalar) xizmat qiladi. Uning predmeti esa muayyan mamlakat doirasida jamiyatning siyosiy-hududiy tashkil etilishini o'rganishdan iborat. Shuningdek, bu fan davlatlar va ularning chegaralari, davlat tuzumi, ma'muriy-hududiy tuzilishi, mamlakat doirasida siyosiy partiya va kuchlarning joylanishi, hududiy tarkibini o'rganadi. So'nggi yillardagi jahon hamjamiyatidagi, jahon geostiyosiy tizimidagi muhim o'zgarishlar hamda davlatlararo tashkil etilgan harbiy-siyosiy uyushma yoki ittifoqlar siyosiy geografiya tadqiqot predmetini yanada kengaytirmoqda. Siyosiy geografiya ham boshqa fanlar singari o'zining mustaqil ilmiy tadqiqot ob'ekti va predmetiga ega bo'lishi bilan birga, o'zi mansub bo'lgan zamонави iqitsodiy va ijtimoiy geografiyaning ilmiy tadqiqot ob'ekti bilan hamohangdir. Ma'lumki, iqitsodiy va ijtimoiy geografiya ijtimoiy geografiyaning fan tarmog'i sifatida jamiyatni yoki hududiy ijtimoiy-iqitsodiy tizimlarni (Manak, 1985) o'rgansa, bunga uyg'un holda siyosiy geografiya jamiyat rivojlantishining hududiy-siyosiy jihatlarini tadqiq qiladi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, siyosiy geografiyaning asosiy ilmiy tadqiqot ob'ekti - bu hududiy siyosiy tizimlar bo'lib xizmat qiladi.

64. siyosiy geografiyaning fan sifatida shakllanish tarixi uncha uzoq emas. Dastavval «siyosiy geografiya» tushunchasi, ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, XVIII asrning 20-50-yillarda Peterburgda (Rossiyada) xizmatda bo'lgan nemis olimlari G.V. Kraft va X.N. Vinsgeymlar tomonidan tilga olingan. Ular ushbu tushunchani geografiya fanining bir qismi, tarixiy geografiya va statistika (davlatshunoslik) bilan aloqadorligini ta'kidlashgan. Siyosiy geografiyanı haqiqiy fan sifatida shakl-lanishini esa ko'pchilik nemis geografi va sotsiolog Fridrix Fon Ratsel nomi bilan bog'laydilar. U 1898 yilda shu nomda kitob nashr ettirganligi uchun siyosiy geografiyaning «otasasi» deb tan olingan. Shi bilan birga Ratselning aynan mazkur asari tufayli shved R. Chellen «geosiyyosat» tushunchasini yaratdi. Siyosiy geografiya - geografik fan sifatida quyidagi ichki tuzilishga ega:

a) umumiy va nazariy siyosiy geografiya (ilmiy - nazariy asoslarini o'rganadi); b) funsional (tarmoq) siyosiy geografiya (jamiyat geosiyyosiy faoliyatining turlari (davlat, partiya, ijtimoiy, diniy, etnik, harbiy), elektoral geografiya, etnosiyosiy geografiyanı o'rganadi); v) mintaqaviy (integral) siyosiy geografiya (turli darajadagi geosiyyosiy tizimlarni, ularning shakllanishi, xarakteristikalar, mamlakatlarning siyosiy - geografik tipologiyasini o'rganadi); g) amaliy siyosiy geografiya - ushbu fanni amaliyotga chiqishini taminlovchi boshqaruv, talimiyl, siyosiy, kartografik, maskravriy yo'nalişlarini o'rganadi.

65. Siyosiy geografiya keng ma'nodagi ijtimoiy geografiya- ning bir qismidir. U iqitsodiy, sotsial-iqtsodiy va sotsial geografiya bilan bir qatorda o'zining alohida blokini shakl-lantirm oqda. Siyosiy geografiya geografiya va siyosatshunoslik qirrasasi-dagi ijtimoiy geografik fandir. U o'z navbatida tarix va geosiyyosat bilan ham yaqindan aloqa qiladi. Biroq, geosiyyosat va siyosiy geografiya bir-biriga juda yaqin bo'lsa-da, ularning orasida farq bor: geosiyyosat asosan davlatlarning tasghi siyosati, siyosiy geografiyaning tadqiqot ob'yekti esa ularning ichki hududiy-siyosiy tuzilishidir. Ayni vaqtida har ikki fan ham jahon geosiyyosiy tizimi, siyosiy xaritasi bilan ish tutadi. Geosiyyosat - bu, avvalo qirravyi fan, ya'ni u geografiya va siyosatshunoslik fanlari qirrasida vujudga keldi. Boshqacha qilib aytganda, geosiyyosat «oyog'i bilan yerga-geografiyaga, boshi bilan esa siyosatshunoslikka - davlat siyosatiga tutashgan. Ulardan qaysi biri geosiyyosatni shakllanishida birlamchi asos ekanligi borasida esa uning hudud bilan bog'liq tomoni, ya'ni har qanday davlatni tashkil topishining ilk sharti hisoblangan hudud asos, poydevor ekanligini ta'kidlash joiz. Xaqqitadan ham, ko'pchilik tadqiqotchilarining xagli ta'kidishlaricha agarda geosiyyosat bevosita va asosan davlat,davlatlar va ularning hayot faoliyatları bilan bog'liq siyosiyxududi jaryonlarni qamrab oladi

66. Global muammolar tushunchasi. XX asrning oxirgi o'n yilliklari dunyo xalqlari oldiga ko'plabotk'ir va murakkab muammolarni ko'ndalang qilib qo'yidiki, ular global muammolar nomini oldi. Global muammolar deb, shunday muammolarga aytiladiki, ular ko'lami jihatdan butun dunyo, butun insoniyatni qamrab olib, uning hozirgi va kelajagi uchun havf tug'diradi. Hamda o'zlarining yechimi uchun barcha davlat va xalqlar kuchlarining birlashushi, birlgilikda jipslashib harakat qilishini talab etadi.

Bular: 1. Tinchlik va qurolsizlanish, yangi jahon urushining oldini olishmuammolari. 2. Ekologik muammosi. 3. Demografik muammosi. 4. Energetika va xom-ashyo muammolari. 5. Oziq-ovqat muammosi. 6. Dunyo okeanidan foydalishan muammosi. 7. Kosmosni tinch maqsadda o'zlashtirish. Global muammolari bir biriga uzviy bog'langan. Masalan energetika va xomoshyo muommosi ekologik muommo bilan, ekologik muommo demografik muommo bilan, demografik muommo esa oziq ovqat muommosi bilan bog'liq. Global muommollarning eng dolzarblari qurolsizlanish muoomosidan qaloq mamlakatlarni rivojlantirish muommosi bo'lib bormoqda

67. Barcha tarixiy davrlar va bosqichlarda urushlar jamiyat rivojida o'z muxrini (asoratini) qoldiradi. Biroq ilgari qachon butun-butun mamlakatlar va hatto materiklarning yo'q bo'lib ketish real «imkoniyati» bo'limgan. Bunday «imkoniyat», ya'ni global havf asming ikkinchi yarmida yadro quroloni va shu bilan birga raketa texnikasi yaratish munosabati bilan vujudga keldi. Mana shuning uchun ham tinchlik va qurolsizlanish, yangi jahon urushining oldini olish, insoniyatning qinlib ketmay, o'zini o'zi saqlab qolishi muommosi haqiqatdan ham hozirgi kunimizning eng birinchi muammosiga aylandi. Faqat 80-yillar oxiri 90-yillar boshiga kelib, uni haqiqiy yechishga asos solindi. «Sovuq urush» tugatildi. Hozir jahon yadro qirg'ini havfi amalda qolmadidi. Biroq ormmaviy qirg'in qurollarning regional ziddiyatlar bilan uyg'unlikda tarqalishining hamon davom etishi dunyo uchun yanada katta havf tug'dirmoqda. Hozirgi vaqtida ko'pchilik global muammollarning og'rilik markazi tabora rivojlanayotgan

мамлакатларга сильмоқда. Улarning qoloqligk kolami nihoyatda kattadir. Bu qoloqlikning asosiy ko'rinishi va yani vagtida sababi-kambag'allik, qashshoqlikdir. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi мамлакатларida aholining 10%ni mutloq qashshoq sharoitda yashaydi. Rivojlanayotgan мамлакатлarda oziq-ovqat muammosi eng dramatik latto fojaloi xususiyatga egadir. Ocharchilik rivojlanayotgan мамлакатlarning umumiy qoloqligi va kambag'allik nihaylidir. Bugungi kunda «ocharchilik» geografiyasini avvalo, Afrika va Osiyoning eng qoloq «yashil inqilob» jihatlab o'tgan мамлакатлari belgilaydi; bu мамлакатлarda aholining katta qismi ochlik o'lism chegarasida yashaydi.

68. **Koshmos-dunyo** miqyosidagi muhit, insoniyatning umumiy mulki (boyligi) hisoblanadi. Kosmik dasturlar ancha murakkablashgan hozirgi vaqtida bu dasturlarni bajarish ko'plab мамлакатлар va xalqlarning texnikaviy, iqtisodiy, aglib imkoniyatlarini jipslashtirishni talab etadi. Shu sababli kosmosni o'zlashtirish eng muhim saharo, global muammolardan biri bo'lib qoldi. Harbiy dasturlardan voz kechishini ko'zda tutuvchi kosmosni tineh maqsadlarda o'zlashtirish dasturi, eng yangi fan va texnika, ishlab chiqarish hamda boshqaruvi yutuqlaridan foydalanshiga asoslanadi. Demografiya muammosi-«asr muammolaridan biri. Bu muammoning o'zaro ziddiyati ikki jihat bor. Birinchidan, mayjud demografik krizis tashvishga solmasligi mumkin emas. Chunki u hozirning o'zida bir qator мамлакатlarda aholi ko'payishi muvozanatinning buzilishiga, uning tez qarib qolishi va sonning kamayib ketishiga olib keladi. Demograf(aholishunos)lar bu jarayonni depopulyasiya deb ataydilar. Ikkinchidan, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining ko'pchilik мамлакатlarda aholining hamon tez o'sishi tashvish tug'dirmoqda. Buning ustiga aholi tarkibida yoshlarning ulushining juda katta ekanligi sharoitida tabiiy o'sish sur'atlaringin tezda pasayishini kutish qiyin. Shunga qaramay, demograf olimlarning qayd qilishicha 60-yillarga teq'g'an kelgan demografik portlash cho'qqisi endi ortda qoldi. Aholi ko'payishining ikkinchi tipiga kiruvchi barcha regionlarda (Afrika bundan mustasno) aholi tug'ilishi va o'sishining kamayishi boshlandi. Demografik muammoni hal qilish uchun BMT «Aholining tarqalishiga doir butun tajhon harakat dasturi»ni qabul qildi.

69. Атроф мухитдаги катта кўламидаги салбий экологик ўзгаришлар XVII асрдан бошланган ва XX асрнинг бошларига келиб ер юзидағи экологик системаларнинг 20% бузилган. XX асрнинг иккинчи ярмига келиб кисман ва тўла бузилган экосистемалар хиссаси 63%дан ошиди. 1960-йиллар охирида ривожланган тарб мамлакатларда атроф мухитнинг ифлосланишига карши кучли жамоатчилик характери вужудга келган, дастлабки экологик конуналар кабул килинган, мингга якин экология ва ривожланни масалалари билан шутулланадиган ташкилотлар тузилиди. 1968- йил 10 та давлатдан 30 кишидан иборат фан, маданият, маориф, бизнес вакиллари «Рим клуби» деб номланган нодавлат ташкилотини тузишиди. Клуб аъзолари инсониятнинг хозирги ва келажайдаги мураккаб ахволини мухокама килиш ва инкироздан чинни йўлларни ўрганишини асосий максад деб белгиладилар. 1972 -йил 13 -мартда «Рим клуби» учун таберланган «Ўсиш чегаралари» маърузаси эълон килинди. Маърузада сайёрамиз келгуси экологик холатини баҳорат килини бўйича глобал модел таҳлили килинган. Моделда сайёрада ўсишини ва унинг чегарасини белгилайдиган беш асосий омили: ахоли сони, кишлек хўжалик ишлаб чиқариши, табиий ресурслар, саноат ишлаб чиқариши ва атроф мухитнинг ифлосланиши асос килиб олинган. Маърузада ахоли сонининг ортиши суръатлари ва истеъмол модели ўзгармаса XXI асрнинг 30-йилларига келиб чукур экологик никоризлар баҳорат килинган.

70. XX-asrning 80-yillarida XIX-asrning oxiriga qaraganda shimoliy yarim sharda o'rtacha harorat +0,6 C ga ko'tarilganligi ma'lum. «Parnik effekti». Bashoratlarga qaraganda asrimizning boshlarida sayyoramizdagji o'rtacha harorat, yana +1,2 C ga ko'tarilishi mumkin. Yer yuzasining o'rtacha harorati esa +15 C hisoblanadi. Karbonat angidrid midqordiga bog'liq. Atmosferada freonlarning ortishi bilan bog'lab tushturish mumkin. Bunday parnik effektining yaratilishi IES ca AES larning xissasi katta. 1994-yilda Kioto bayonnomasi tuzildi. Bunda «Issiqlik gazlarini ishlab chiqarishni 10-yil ichida 5%ga kamaytirish to'g'risida» nizom qabul qilingan. Iglim o'zgarishini o'rganish muammolari Buyuk Britaniya olimlari zimmasidadir. Gollandiyadagi to'g'on buziladigan bo'lsa bu davlat hududining 2/3 qismi suv ostida qoladi. Haroratning ko'tarilishida atmosferada karbonat angidrid va freonlarning ko'payishi bilan bog'liq. Parnik effektiga oid fikr mulohazalar XX-asrning 60-70 yillarida bashorat qilingan edi. Bunga ko'ray sayyoramiz iglim global ko'lama o'zgarishi bashorat qilingan. Agar parnik effekti hozirgi davrdagidek rivojlansa, har o'n yilda harorat 0,5 C ga ortadi. Bu kutilmagan salbiy oqibatlar olib kelishi mumkin. Aniqlangan ma'lumotlarga qaraganda, agar harorat 3-4 C ga ortsa, iglim mintaqalarining chegaralari yuzlab kilometr shimolga va janubga chozilishi mungkin. Antarktika, Grenlandiya va Shimoliy muz okeanidagi muzliklar erib ketishi oqibatida dunyo okeani satni 66 m ga ko'tarilishi va 25% aholi yashab turgan sohillarni suv bosishi mumkin.

71. Умуман олганда, экология мустакил фан сифатида XX асрнинг бошларida юзага келган (Одум, 1986). Г.В.Стадницкий, А.И.Родионовлар фикрича, «экология- бу тирик мавжудотларнинг улар хаёт keчира диган ташки мухит билан ўзаро муносабатларини ўрганадиган фандир». Яна шундай таърифлардан бирда экология тирик мавжудотларнинг хаёт фаолияти конунийтларини, улар хаёт keчирадиган табий мухитни инсон омилининг таъсирини хисобга олган холда ўрганадиган фандир, деб таъкидлаган (Радкевич, 1972). Экология фани антавиавий тарзда табиатшуносликнинг турли соҳалари билан бояланган (биология, кимё, география, тибиёт). Шу сабабдан кейинги йиллarda «география экология», «глобал экология», «математик экология», «кимёвий экология» каби тушунчалар юзага келмокда. Ижтимоий ёки социал экология социал географияга жуда якин. Социал экологиянинг шаклланишида эса инсон экологисининг роли катта бўлган. Базъи маълумотларга кўра, инсон экологиясининг маркази А+Ш нинг Чикаго шахри

хисобланади. Чикаго университети география фанининг социология билан биргаликда ривожланиши натижасида инсон экологияси вужудга келди. Унинг муҳим тармоги сифатида шаҳар экологияси (урбэкология) шаклланди. Шунинг учун Чикагонинг урбонология илмий мактаби дунгёра машхур. Айни пайтда инсон экологияси биогеографиянинг ривожланишига ҳам сезиларли даражада таъсир кўрсатди Алоҳида кай, этиш жонизки, «Инсон экологияси» тушунчасини биринчинар каторида 1921 йилда америкалик олимлар Бордшер ва Парк тиббийёт фанининг бир кисми сифатида ишлатишган.

72. 1960-yillar oxirida rivojlangan g'arb mamlakatlarda atrof muhitning ifloslanishiga qarshi kuchli jamoatchilik harakati vujudga kelgan, dastlabki ekologik qonunlar qabul qilingan, mingga yaqin ekologiya va rivojlanish masalalari bilan shug'ullanadigan tashkilotlar tuzildi. 1968- yili 10 ta davlatidan 30 kishidan iborat fan, madaniyat, maorif, biznes vakillari «Rim klubii» deb nomlangan nodavlat tashkilotini tuzishdi. Klub a'zolari insoniyatning hozirgi va kelajakdagi murakkab ahvolini muhokama qilish va inqirozdan chiqish yo'llarini o'rganishni asosiy maqsad deb belgiladilar. 1972 -yil 13 -marta «Rim klubii» uchun tayyorlangan «O'sish chegaralar» ma'ruzasi e'lon qilindi. Ma'ruzada sayyoramiz kelgusni ekologik holatini bashorat qilish bo'yicha global model tahlil qilingan. Modelda sayyoroda o'sishni va uning chegarasini belgilaydigan besh asosiy omil: aholi soni, qishloq ho'jalik ishlab chiqarishi, tabiiy resurslar, sanoat ishlab chiqarishi va atrof muhitning ifloslanishi asos qilib olingan. Ma'ruzada aholi sonining ortishi sur'atlari va iste'mol modeli o'zgarmasa XXI asrning 30-yillariga kelib chuqur ekologik inqirozlar bashorat qilingan. «Rim klubii»ning e'lon qilingan keyingi global modellarida(1974; 1990; 1992) yangi sharoitlar hisobga olingan, o'sish istiqbollariga, ekologik xalokat xavfiga qarashlar o'zgargan. 1972 yil 5 iyunda Stokgolmda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ning Atrof muhit bo'yicha birinchi Umumjahon Konferentsiyasi o'tkazildi. Unda 113 davlat vakillari qatnashdilar.

үшбү давлатларнинг иқлимий хусусиятлари шу сабабларга кўра асосан континентал, кўп ҳолларда иккиси континенталдир. Шунингдек, рельеф-геологик хусусиятлари ўлканинг ўзига хос иқтисодий география имкониятларини көлтириб чиқаради. Иқтисодий-географик ўхшашликлари аввало мазкур давлатларнинг турли табиий бойликларга ва ахолисининг ўзига хос демографик кўрсаткичларга, эгалиги, меҳнат ресурсларiga бойлиги, диний эътиқодларининг яхлитлиги, ягона атроф-муҳит ва иқлим кўрсаткичлари асосида, аҳолининг яшаш ва ишлаб чиқариши фаoliyatlari (суформа дехқончилик)нинг ўхшашлиги, мамлакатлар ижтимоий-иқтисодий ривожланиши даражасининг якнилиги, саноат ва қишлоқ хўжалик маҳсулотлари ишлаб чиқаришга ихтинослашганлиги билан белгиланади. Хусусан. Минтақа давлатлари иқтисодиёти собиқ итифоқ даврида асосан хом ашё, ярим хом ашё ишлаб чиқаришагина ихтинослашган эди.

27.O'rta Osiyo davlatlarining siyosiy geografik o'rni va uning mintaqasi rivojlanishiga tasiri.

Ўрта Осиё минтақаси Ўзбекистон, Қозогистон, Қирғизистон, Тоҷикистон ва Туркманистон давлатларидан ташкил топган бўлиб, умумий майдони 4 млн км²дан зиёд ва аҳолиси 60 млн киши. У дунёнг ҳудудининг 3 % дан кўпроғини ва ахолисининг 1 % га яқинини ташкил этади. Ўрта Осиё минтақасининг табиий шароити ўта хилма-хил, ҳудуди ресурсларга бой. Табиий шароит деб инсоннинг яшаш ва меҳнат қилиш шароитини келиб чиқишига даҳлор бўлган табиат үнсурлари ва қувватларига айтилади. Булар жойларнинг рельефи, иклими, турроқ-сув каби шароитларидир. Минтақа рельефи хусусиятларида текисликлар Қозогистон, Туркманистон ва Ўзбекистон давлатларида аҳамияти бўлиб, минтақа ҳудудининг ¾ қисмини ташкил қиласди. Тоғлар ва ясси тоғликлар минтақа ҳудудининг атиги ¼ қисмини эгаллади ва Тоҷикистон ҳамда Қирғизистонга хосдир. Улар республикалар иқтисодиётининг шаклланиши ва ривожланишида муҳим роль ўйнайди.

28.O'rta Osiyo tabiiy resurslari (yer, suv, turroq, qazilma boyliklari, rekreatsiya va boshqa) va ularning mintaqasi taraqqiyotidagi ahamiyati.

Марказий Осиё ҳудуди турли хил табиий ресурсларга бойдир. Минтақада айниқса минерал табиий ресурслар ҳамда күёш, оқар сув(дарё), шамол геотермал каби энергия воситалари дунёвий аҳамиятга молик, аксинча, сув, ўрмон ресурслари эса анча кам. Ҳозирги вақтда иқтисодий жиҳатдан энг аҳамияти табиий ресурс турини минерал табиий бойликлари (ер ости қазилма бойликлари) ташкил этади. Минтақада ер ости қазилма бойликларининг деярли барча турлари мавжуд. Минтақа ёқилғи-енергетика ресурсларига жуда бой. Кўмур Туркманистондан бошқа барча мамлакатларда мавжуд. Энг катта кўмур заҳираларига Қозогистон эга. Кейинги ўринларда Ўзбекистон, Қирғизистон ва Тоҷикистон туради.

Нефть барча мамлакатларда топилган. Унинг заҳиралари айниқса Қозогистон, Туркманистон ва Ўзбекистонда катта, аксинча тоғли республикаларда кам.

Табиий газга текислик давлатлари–Туркманистон, Ўзбекистон ва Қозогистон анча бой. Аммо Қирғизистон ва Тоҷикистонда унинг аҳамияти конлари ҳозиргача топилмаган.

Минтақа мамлакатларидан темир рудасига фақат Қозогистон бой, бошқа давлатларда унинг саноат аҳамиятига эга бўлган конлари учрамайди. Лекин рангдор металлардан мисга ҳамда полиметал рудаларига Қозогистон ва Ўзбекистон, симоб ва сурмага Қирғизистон ва Тоҷикистон бой. Фақат Туркманистонда деярли металли қазилма бойликлар конлари учрамайди.

Ўрта Осиё ҳудудлари кимёвий минерал ресурсларга ҳам анча бой. Жумладан фосфоритнинг йирик конлари Қозогистон ва Ўзбекистонда мавжуд. Тури туз конлари минтақанинг барча давлатларида катта заҳираларда эга. Йирик олтингурут кони эса фақат Туркманистонда мавжуд. Минерал қурилиш материаллари барча давлатларда катта заҳираларга эга.

29. Markaziy Osiyo aholisi (tabiiy ko'payishi, diniy, jinsiy, yosh tarkibi, geografik joylashishi, zichligi).

Ўрта Осиё ахолисининг умумий сони ҳозирги вақтда (2006 й.), 60 млн кишини ташкил этди. Шу жумладан Ўзбекистонда 26,1 млн; Қозогистонда 15,2 млн; Тоҷикистонда 7,3 млн; Туркманистонда 6,7 млн ва Қирғизистонда 5,2 млн кишига тенг бўлди. Аҳолишуносларининг прогнозизига қараганда 2025 йилга бориб мамлакатлардаги аҳолининг сони кўйидагича бўлар экан: Ўзбекистонда 43,3 млн; Қозогистонда 20,5 млн; Тоҷикистонда 13,1млн; Туркманистонда-7,9 млн ва Қирғизистонда-7 млн киши. Ўрта Осиё регионида умумий аҳоли сони 2025 йилга бориб 92 млн кишига этиши мумкин. Аҳоли

үсишининг барча давлатларда бир хилда эмаслигига миңтақада шаклланган мұрakkab тарихий-географик, ва иқтисодий-иктимий ҳусусиятлар катта таъсир күрсатмоқда. Миңтақа ахолисининг асосий қисми Ўзбекистонда яшайды(43,5%).

Үрта Осиё давлатлари ахолисининг ююори суръатлар билан үсиши (Қозогистондан ташқари) асосан табиий үсиш ҳисобига бўлмоқда. Табиий үсиш кўрсаткичига кўра Ўрта Осиё давлатлари МДҲ да олдинги ўринда туради. Табиий үсиш кўрсаткичи бўйича кейнинг йилларда Туркманистон ююори кўрсаткичга эга бўлмоқда. Ўзбекистон, Тоҷикистон, Қирғизистон, ва Қозогистон Республикаларида минг киши ҳисобига табиий үсиш 26,6; 25,6; 21,4; ва 11,8 кишини ташкил этган.

ЎО Республикаларида табиий үсиш бир хил эмас. Биргина 1990-1997 йилларнинг ўзида Ўзбекистон ахолиси 13,3 % га кўпайди. Қозогистонда ахоли сони камайиши кўзатилди. Бунинг асосий сабаби табиий үсишнинг камайиб бораётганилигидир. 1990 йил ҳар минг кишига табиий үсиш 18,1 киши туғри келган бўлса, бу кўрсаткич 1997 йилда 5,0 кишига тенг бўлди. Қозогистоннинг қишлоқ жойларида бу кўрсаткич 20,4 кишини ташкил этади. Шунингдек Тоҷикистондан 1990-97 йилларда табиий кўпайиш ююори бўлиб, МДҲ давлатлари орасида етакчи ўринни эгалаган. Кейнинг йилларда мамлакатдаги ўзаро келишмовчиликлар оқибатида ахолининг табиий ва механик үсишида камайишлар кўзатилди.

30. Markaziy Osiyoda urbanizatsiya darajasi, yirik shahar va shahar aglomeratsiyalari. Aholi migratsiyasi va uning sabablari. Ўрта Осиё ахолисининг географик жойлашувига ҳам объектив ҳам субъектив омиллар таъсир кўрсатмоқда. Водий ва воҳалар, қадимий вилоят марказларида ахоли кўп ва зич яшайди. Миңтақанинг барча ҳудудларида шаҳар ахолисига қараганда қишлоқ ахолиси кўпчиликни ташкил қиласди. Яъни умумий ахолининг 45 % и шаҳарларда, қолган 55 % эса қишлоқларда яшайди. Тоҷикистон Қирғизистон ва Ўзбекистон Республикаларида үрбанизация жараёни жуда секин кечмоқда. Үрбанизация даражаси бўйича Қозогистон ЎО давлатлари ичидаги энг ююори кўрсаткичга эга.

Йирик маъдан конларининг топилиши ва ишга тушунилиши, янги ерларни ўзлаштирилиши ва йирик ирригация-мелиорация ишларини амалга оширилиши билан ахоли жойлашувига ўзгаришлар бўлмоқда.

Урбанизация даражаси ҳозирги вақтда Қозогистонда 57 % ни, Туркманистонда 45 % ни, Ўзбекистонда 36 % ни, Қирғизистонда 37 % ни, Тоҷикистонда 27 % ни ташкил этмоқда.

Үрта Осиё ҳудудида ахолининг зичлиги ҳар бир кв.км га 15,0 киши тўғри келади. Бу кўрсаткич Ўзбекистонда-58, Қозогистонда-5,6, Тоҷикистонда-50, Туркманистонда-14, Қирғизистонда-26,2 киши тўғри келади. Ахоли зичлигининг давлатлар орасида кескин фарқ қилиши ахолининг ҳудудий таркиби, табиий үсиш коеффициенти, тарихий омил бошқалар билан боғлиқ.

31. Markaziy Osiyoda mehnat resursları, aholining iqtisodiyot tarmoqlarida bandligi. Пахта етишириш ва уни дастлабки қайта ишлаш билан боғлиқ барча ишлаб чиқариш соҳаларининг рағбатлантирилиши натижасида Фарғона ва Зарафшон водийларида Тошкент воҳасида дастлабки саноат корхоналари юзага кела бошлаган эди. Шу билан бирга төғ-кон саноати. Транспортга хизмат қилиш соҳаси, қурилиш материаллари саноати каби тармоқлар ҳам ўзининг дастлабки одимларини ташлаган эди. Шундай қилиб, миңтақа ҳалқ ҳўжалигининг асосан товар хом-ашё маҳсулотларини билан ишлаб чиқаришга ихтисослашувига асос солинган эди.

Иттифоқ даврида бу жараён яна чуқурлашди ва охирига етқазилди. Даставвал миңтақада тоталитар Қизил империя-Совет давлатининг асл манбаатларига хизмат қиладиган стратегик маҳсулотлар-пахта, пилла, сабзавот, мева, төғ-кон маҳсулотлари, ёқилғи, рангли, қиммат баҳо ва нодир металларни етиширувчи тармоқларни ривожлантириша зўр берилди. Ҳалқ ҳўжалигининг бошқа тармоқларига (машинасозлик, кимё, қурилиш материаллари, электроэнергетика, енгил, озиқ-овқат саноатлари) эса юкорида қайд қилинган стратегик аҳамиятли маҳсулотларни янада кўпроқ ва арzonроқ ишлаб чиқаришга ёрдам берувчи йўналишлар сифатида қаралди.

32. Markaziy Osiyoy xo'jaligining tarixiy shakllanishi va rivojlanishi. Halqaro mehnat taqsimotida tutgan o'rni. Жумладан, Ўрта Осиё давлатларида машинасозлик саноати асосан маҳаллий қишлоқ ҳўжалиги эҳтиёжлари учунга зарурий машина ва ускунналар ишлаб чиқаришга ихтисослашган, кимё саноатининг эса асосий вазифаси деб қишлоқ ҳўжалиги учун зарурий минерал ўғитлар ва заҳарли

41. Yaqin va uzoq xorij davlatlari bilan Markaziy Osiyo davlatlarining olib borayotgan iqtisodiy aloqalari, eksport va import mahsulotlari. 1991 йилининг декабрь ойидаги Беларусь, Украина ва Россия Федерацияси давлат раҳбарлари Мустақил Давлатлар Ҳамдустлигини барпо этиш түғрисидаги битимни имзоладилар. Бу битимда Собиқ Иттилоғонинг халқаро ҳуққува геосиёсий тизим сифатида барҳам топғанлиги ва МДҲ ташкил топғанлиги эълон қилинди. Белорусь, Қозогистон, Россия Федерацияси, Тажикистон, Туркманистон ва Украина МДҲга аъзо бўлуб кирдилар. 1992 йилда Арманистон, Молдавия, Қирғизистон ва Ўзбекистон, 1993 йилда Озарбайжон МДҲга аъзо бўлди.

МДҲ фаолиятининг дастлабки йилларида (1991-1994 йилларда) Ҳамдустликка аъзо мамлакатларда миллий мағнаатлар устувор ўринига ега бўлди. Бунинг натижасида ўзаро ташки савдо алоқалари сезиларли даражада заифлашди, МДҲ мамлакатларининг аксарияти узоқ хориж мамлакатлари билан иктисодий ҳамкорлик муносабатларини ривожлантиришга устуворлик бердилар. Экспертлар фикрича, Собиқ Иттилоғ Республикалари ўргасидаги хўжалини алоқаларининг бузилиши натижасида пировард махсулот ишлаб чиқариш ҳажми 35-40 фойзга камайди.

42. Qozog'iston Respublikasining geografik o'rni, maydoni, chegaralari, tabiiy boyliklari va ularning joylashuvini. Қозогистон Республикаси пойтахтлари ролини ҳам турли даврларда турли шаҳарлар ўтадилар. Булар Оренбург (1920-1925 й.), Қизилурда (1925-1929 й.) ва Алмати (1929-1998 й.). Сўнгги пойтахти этиб Астана (олдинги Ақмөла) шахри танланди.

Хозирги вақтда Қозогистон Республикаси маъмурӣ ҳудудий таркибида 14 облас тавжуд, улар бешта иктисодий районга бирлаштирилган.

Қозогистон Республикасининг умумий майдони 2724900 км², умумий майдони бутун ер шари майдонининг 2 % ни, Осиёнинг 6,1 % ни, минтақа ҳудудининг 2/3 қисмидан кўпроғини ташкил қиласди. Катталигига кўра у МДҲда Россиядан кейин 2, жаҳонда эса 9 ўринни эгаллади. Аммо аҳолисининг сони (15,2 млн. киши, 2006 й.)га кўра у МДҲда 3, жаҳонда эса 52 ўринда туради.

Қозогистоннинг географик ўрни ҳам ўзига хос. У Евросиё материгининг марказида, Марказий Осиё минтақасининг шимолий томонини эгаллади. Унинг ҳудуди Россия Федерацияси ва Туркияга ўшаш Европа ва Осиё қитъалари бўйлаб жойлашган.

Унинг ҳудуди шимолдан жанубга 1800 км, фарbdan шарқقا эса 3000 км га чўзилган ва қуруқлика 5 та давлатлар (Россия, Хитой, Қирғизистон, Ўзбекистон ва Туркманистон) билан чегароди. Чегараларининг умумий узунлиги 13331 км ни ташкил қиласди. Шунингдек, 600 км масофада Россия, Озарбайжон, Туркманистон билан Каспий денгизи орқали ҳам чегараларга эга Табиий ресурсларга Қозогистон анча бой. Айниқса табиий минерал ресурслар кўйами ва хилма-хиллиги бўйича. У МДҲ давлатлари орасида мис, кўргоншин, рух, кумуш, вольфрам, висмут, ванадий, барий заҳиралари бўйича биринчи, нефть, молибден, кадмий, боксит, фосфорит, асбест заҳиралари бўйича иккинчи, кўмир, темир рудаси, кўплаб турдаги минерал қурилиш материаллари заҳиралари бўйича учинчи ўрнларни эгалайди.

43. Qozog'iston Respublikasi sanoat va qishloq xo'jaligining yetakchi tarmoqlari va ularga tafsif. Саноати. Республика хўжалигининг етакчи тармоғи саноатидар. 2006 йиль маълумотига кўра таркиби ва уларнинг маҳсулотлар ишлаб чиқариши ҳажмига кўра (%) ҳисобида тутган ўрни қўйдагича: ёқилғи-энергетика 26,6 %, металлургия-26,1 %, кимё нефтоқимё -4,0 %, машинасозлик-5,4 %, қурилиш материаллари, ойна ва чинни-кулолчилик 5,5 %, ўрмон, ёғочни қайта ишлаш ва цеплюзоз-қозоз-2,4 %, енгил саноат 12,1 % ва озиқ овқат саноати -17,9 %.

Қишлоқ хўжалиги. Маълумки қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши ер ресурсларига асосланган. 2003 йилининг 1 январидаги статистик маълумот бўйича, республиканинг жами қишлоқ хўжалигига яроқли ерлар 78,6 млн га-ни ташкил қиласди.

Республика қишлоқ хўжалигининг муҳим ҳусусиятларидан бири ишлаб чиқарилаётган жами маҳсулотлари ҳиссасида дехқончilikning устунлик қилишидир. Сўнгги маълумотларга кўра, дехқончilikning ҳиссасига 56,9 % дан кўпроқ қишлоқ хўжалик маҳсулотлари тўғри келади.

44. Tojikiston Respublikasining geografik o'rni, maydoni, chegaralari, tabiiy boyliklari va ularning joylashuvini. 1991 йил 9 сентябрь Тоҷикистон республикасининг мустақиллик куни ҳисобланади. Шу кундан бошлаб Тоҷикистон республикаси жаҳон сиёсий ҳаритасида мустақил давлат сифатида фаолият

кўрсатиб келмоқда. У БМТнинг кўплаб сиёсий, иқтисодий-молиявий, ижтимоий ташкилот ва жамиятларнинг аъзосидир.

Тожикистон республикасининг иқтисодий географик ўрни (ИГЎ) ўзига хосдир. Унинг ИГЎси бир қатор омиллар асосида маълум нокулайликларга эга. Булар ҳозирги вақтда қўйидагилардир:

1. У Марказий Осиёning чекка жануби-шарқида жойлашган, Табиий шароитининг хусусиятлари асосан унинг рельефи билан узвий боғланган. У қўшинлари Қирғизистон, Хитой ва Афғонистон билан баланд тоғлар ва ён бағирлари жуда тик даралар ҳамда дарёлар билан чегарадошли, шу туфайли ана шу қўшилнилари билан ҳозирги вақтда Тожикистоннинг иқтисодий алоқалари тўғридан тўғри деярли олиб борилмайди. Унинг жаҳонга чиқиши имкониятлари фақат Ўзбекистон орқалигина олиб борилмоқда. Минерал ресурсларнинг барча гурухлари республикада учрайди. Ёқилиги минерал ресурслар орасида қўнгир кўмир конлари кўпроқдир. Улар орасида Шўроб (қўнгир кўмир), Фан-Ҷангоб (тошкўмир) конлари анча аҳамиятли. Нефть конлари фақат Кўйи Ваҳш водийсидаги Конибодом районларида топилган. Лекин улар анча кам қувватли конлардир. Мухим қазилма бойликларидан полиметалл, вольфрам, суръма, олтин, нефелин, қалайи, тўрли тарқонқ рангдор металлар ҳисобланади.

45.Tojikiston Respubliksi sanoat va qishloq xo'jaligining yetakchi tarmoqlari va ularning tavsifi.

Ҳўжалиги. Тожикистон ҳаљ ҳўжалиги аграр-индустрiali характерга эга. Саноати. 2000 йил маълумотига кўра республика миллий даромадининг 35 % дан кўпроғини саноат тармоқлари берди. Саноатининг тармоқлар таркиби (ишлаб чиқарилган маҳсулотлар қўймати, фоиз ҳисобида) қўйидаги; ёқили-энергетики - 16,2 %, металлургия-17,0 %, кимё - ва нефт - кимё-3,0 %, қурилиш материаллари, чинни ва ойнасозлик-2,6 %, ёғочни қайта ишлаш за целлюлоза- когоз-0,9 %, енгил саноат-36,2 %, озиқовқат саноати-12,5 %. Бошқача айтганда, Тожикистонда бошқа республикаларга нисбатан аҳоли истеъмоли маҳсулотлари ишлаб берувчи енгил ва озиқ-овқат саноатларининг ҳиссаси анча юқори (48,7 %). Аксинча оғир саноат тармоқлари нисбатан суст ривожланган. ҳаљ ҳўжалиги ўз йўлида бир қатор мұаммоларнинг ечимини топишни талаб қилинади. Қишлоқ ҳўжалиги. Тожикистон иқтисодиётининг асосини қишлоқ ҳўжалиги ташкил қиласди. Миллий даромад яратишда унинг ҳиссаси 25 % га (2005 й.) тенг. Республика қишлоқ ҳўжалигининг асосини ер фонди ва улардан фойдаланиш имкониятлардан иборат. Жами ҳудуднинг 1/3 қисмидангина қишлоқ ҳўжалигида фойдаланилади. Экин майдонлари эса 827 минг га ни ташкил қиласди. Ҳайдаладиган ерларнинг аҳоли жон бошига тўғри келишига кўра Тожикистон Марказий Осиёда энг паст кўрсаткичга эга, (0,14 га).

6.Qirg'iziston Respublikasining geografik o'rni, maydoni, chegaralari, tabiiy boyliklari va ularning joylashuvni.

Қирғизистон Республикаси Марказий Осиё минтақасининг жануби-шарқий қисмida жойлашган. У дунёning таникли тоғли давлатлари қаторидан ўрин олади. Ана шу хусусиятлар Қирғизистоннинг иқтисодий географик ўрни (ИГЎ)ни белгилайди. Республиkaning ИГЎ нисбатан нокулай. Унинг нокулайлига аввало баланд тоғли рельефи билан боғланган. Шунга кўра Қирғизистон ҳудудини биронча транзит йўллари кесиб ўтмайди, яъни темир ва автомобиль йўллари республика кириб келади, аммо ундан нарига чиқиб кетмайди, бу биринчидан. Қирғизистоннинг умумий майдони 198,5 минг км² бўлиб минтақада тўртинчи, МДҲда еттинчи ва жаҳонда саксон олтиничи ўринларни эгаллади. Аҳолисининг сони 5,2 млн киши (2006й.). Бу кўрсаткич бўйича у минтақада охириги, МДҲда 10, ва жаҳонда 108 ўринни эгаллади. Республика шимолда Қозогистон, шарқда Хитой, жанубда Тожикистон ва гарбда Ўзбекистон республикалари билан чегарадош, Табиий ресурслари хилма-хил. Улар орасида табиий минерал ресурслар алоҳида иқтисодий аҳамиятга моликдир. Ер ости қазилма бойликларининг мухим тури уларнинг ёқили-энергетика минерал бойликларидир. Унда кўмир бойлиги катта заҳираларда ва хилма-хилликда мавжуд. Республикада кўмирнинг геологик заҳираси 31 млрд т.ни ташкил қиласди.

47.Qirg'iziston Respubliksi sanoat va qishloq xo'jaligining yetakchi tarmoqlari va ularga tavsifi.

Ҳўжалиги. Қирғизистон республикасининг ҳозирги ҳўжалиги аграр-индустрiali характерга эга. Шу билан бирга унинг ҳўжалик мажмуаси таркиби ва ривожланиши хусусиятлари бошқа Ўзта Осиё республикаларидан кўп жиҳатдан фарқ қиласди. Ялпи миллий маҳсулотда саноат 20,5 %, қишлоқ ҳўжалиги 38,4 %, хизмат кўрсатиш тармоғи 12 %, савдо 10,1 %ни ташкил этади.

Саноати. Саноати асосан уруш ва ундан кейинги йиллarda тез суръатлар билан ривожланди. Саноатининг ўзига хос томони (ихтисоси) шундаки, унда Қозогистон, Туркманистондагидек ундирувчи тармоқлар эмас, балки ишлов

Саноатининг етакчи тармоқлари: машинасозлик (қишлоқ хўжалик машиналари, метал кесувчи станоклар, электротехника буюмлари, приборлар ва бошк.), рангли металлургия (симоб, сурма ва қўргошин-руҳ рудаларини қазиб олиш ва бойитиш), нефтни қайта ишлаш, енгил (ип-газлама, жун, ипак матолари, трикотаж, кўн-пойабзal, тикувчилик буюмлари и.ч., гилам тўқиши), озиқ-овқат (гўшт-сут, ун-ерма ва б.) саноати.

48. *Turkmaniston davlatining geografik o'rni, maydoni, chegaraları, tabiiy boyliklari va ularning joylashuvı*. Суверен Туркманистон республикаси эса 1991 йил 27 октябридан жаҳон сиёсий ҳаритасида мустақил давлат сифатида пайдо бўлди. У БМТ нинг тенг ҳуқуқли аъзоси, кўплаб дунёвий сиёсий, иктисодий, молиявий, ижтимоий ташкилотларга қабул қилинган. Марказий Осиё, қолаверса МДХ давлатлари орасида Туркманистон олиб бораётгай ўзига хос сиёсий-ижтимоий сиёсати билан ҳам ажralиб туради, яъни биронта сиёсий блокларга қўшилмаслик, бетарафлик сиёсатини олиб бормоқда. Туркманистон МДХда ва жаҳонда бой газ ва нефт заҳиралари, пахтаси, гилами, ахалтекин зотли отлари билан машҳур. Марказий Осиё минтақасининг энг жанубий ҳудудларини эгаллаган Туркманистон республикасининг ИГЎси сўнгти йилларда табора қулалишшиб бормоқда. Иттифоқ даврида Марказий районлардан чеккада ҳойлашган бу ўлка мустақиллик йилларида, айниқса мезо ва макро ИГУ қўрсаткичларига кўра энг қулаш шароитларга эга бўлиб бормоқда. Собиқ Иттифоқ даврида анча ноқулай ИГУ га эга бўлган Туркманистон 90-йиллар ўрталарида ишга тушシリлган Тажан-Серакс-Машҳад темир йўли (Марказий Осиё республикаларини Эрон ва Форс кўрфази билан боғловчи) ва "Traseca" транспорт йўлаги (Марказий Осиё республикаларини Кавказ ҳамда Каспий ва Қора денгизлар орқали Европа мамлакатлари билан боғловчи) түфайли ўрта Осиё ва Қозогистон республикаларининг Жанубий ва Жануби-Ғарбий Осиё ҳамда Ғарбий давлатлари билан алоқа қилиш майдонани айланиси бормоқда. Бу ҳолат унинг ИГЎ ни том маънода, анча қулаш даражага олиб чинди. Ҳозирги вақтда минтақа давлатлари ташкии иктисодий алоқаларининг анчагина қисми унинг ҳудуди орқали амала оширилмоқда. Маъмурӣ – ҳудудий жиҳатдан республика таркибида Аҳал, Балхон, Мари, Лебаб ва Даҳшовуз вилоятлари мавжуд. Туркманистоннинг бош шаҳри Ашхабодdir.

49. *Turkmaniston davlati sanoat va qishloq xo'jaligining yetakchi tarmoqlari va ularning tavsiisi*.
Ҳўялиги. Туркманистон ҳўяжалиги аграр-индустрисал йўналишига эга. Саноати. Саноат маҳсулоти қажмига кўра Марказий Осиё республикалари орасида энг суст ривожланган: 90 - йиллар ўрталарида унинг республика миллий даромадини яратишдаги ҳиссаси 11-12 % ни ташкил қилган. Шундан келиб чиқсан ҳолда Туркманистон саноатининг таркибий ҳусусиятлари ҳам ўзгача. Унинг саноатини бошқа Марказий Осиё давлатларидан фарқли улароқ бир тармоқли ҳўжалик дейиш ҳам мумкин. Статистик маълумотлар шундай дейишга асос беради. Жумладан, биргина ёқилги-энергетика мажмуми саноат маҳсулотларининг 67% дан кўпроғини берган ҳолидан бошча оғир саноат тармоқлари биргаликда 9 % дан кам маҳсулот иншаб чиқара олган. Қишлоқ ҳўяжалиги. Қишлоқ ҳўяжалиги-Туркманистон республикаси иктисадиётida жами миллий даромадни яратишда энг катта ўрин тулади. 90- йиллар ўраларида бу борада унинг ҳиссаси сал кам 48% ни ташкил қилган. Бу ҳолат ҳозирги вақтда ҳам ўз кучида қолмоқда.

Қишлоқ ҳўяжалигининг асосини албатта, ер-сув фонди ташкил этади. Туркманистоиди бир томондан ер фондининг анча катталиги, иккинчи томондан эса сув таъминотиниг мурракаблига ана шу ресурслардан фойдаланишида ўзига хос имкониятларни келтириб чиқарган. Масалан, шу сабабларга кўра республиканинг дастлабки мустақиллик кунларидан бошлаб ҳусусий фойдаланиш учун то 50 гектаргача ерга эгалик қилишга руҳсат этилган.

Республикада жами ҳайдаладиган ерлар 1,5 млн га ни ёки у жами майдонининг 3,6% ни ташкил қиласди. (Марказий Осиёда энг паст қўрсаткич). Шунга қарамасдан қишлоқ ҳўяжалигининг асосий соҳаси дех-қончиликдир.

50. Markaziy Osiyo davlatlari aro iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy aloqalar va ularni yanada rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlar.

1994 йил 10 январда Қозогистон Республикаси Президенти Н. Назарбоев-

нинг Тошкентта қылган расмий сафари давомида бу масала борасида биринчи амалий қадам қўйилди. Яъни, Ўзбекистон ва Қозогистон давлатлари ўртасида иқтисодий маконни ташкил килиш, улар ўртасидаги ўнга тўсиқ бўладиган барча говларни олиб ташлаш ва шу асосида интеграция алоқаларини йўлга қўйишга келишиб олинди. Бу икки томонлама шартномага шу йилнинг февраль ойидан Қирғизистон ҳам қўшилди. Мазкур шартномани имзолашдан кўзда тутилган асосий мақсад товарлар, хизматлар, капитал ва ишчи кучининг миңтақа бўйлаб эркин ҳаракатини таъминлаш, келишилган солик, бюджет, нарх, божхона ва валюта сиёсатини юритишдан иборат эди. Миңтақа давлатлари раҳбарлари 1996йил 5 апрелда ёқилғи-энергетика ва сув ресурсларидан фойдаланиш, Ўрта Осиё миңтақасида газ құвуларини қуриш ва ишга тушириш тўғрисидаги битимга ҳам имзо чекдилар.

Ўзбекистон, Қозогистон ва Қирғизистон давлатлари 1998 йил 17 марта Сирдарё ҳавзасининг сув-энергетика ресурсларидан фойдаланиш тўғрисидаги узоқ муддатли шартномани имзоладилар. Бир йилдан сунг бу шартномага Тожикистон ҳам қўшилди. Тожикистон 1998 йил 26 марта мазкур республика ҳам ягона иқтисодий худуд тўғрисидаги шартноманинг тўлақонли аъзосига айланди.

Мазкур йилнинг ўзида ушбу "тўртлик" давлатлари иштирокида **Марказий Осиё иқтисодий ҳамдўстлиги ташкилотига** асос солинди.

Тузувчилар : dotsent Q.Allanov. M.Erdanov. X.Абдуназаров

chiqariladigan mahsulotlar bozor, birinchi navbatda, tashqi bozor uchun mo'ljallangan bo'ldi. Bunday xo'jaliklar ishi intensiv tashkil qilingan zamoniaviy dehqonchilik va chovachilik sohalari bo'lishi mumkin. ikkinchisi, asosan, ichki xo'jalik iste'moli uchungina mahsulot ishlab chiqaradigan, odatda, kam samarali qishloq xo'jaliklaridir. Bunday xo'jaliklar qadimdan keng tarqalgan bo'lganligi sabablari an'anaviy qishloq xo'jaligi ham deyiladi. Ularda ish, odatda, ekstensiv holda tashkil qilingan bo'ldi. Hozirgi vaqtida bunday qolqo dehqonchilik xo'jaliklari jahoning rivojlanyotgan ko'pchilik mamlakatlari keng tarqalgan.

89. Donli ekinlar turi ancha ko'p bo'lib, jahon ekin maydonlarining o'rtacha yarmi (0,7 mlrd. ga) da ekladi. Don mahsulotlari aholi ozig'ining asosi bo'lib, jahon bo'yicha yalpi hosili 1,9 mlrd. t ni tashkil qiladi. Dunyo donli ekinlari ekin maydonlarining tarkibi quyidagiicha: bug'doy - 30%; sholi - 28%; makkajo'xori - 25%; arpa - 9%; oq jo'xori - 3%; javdar - 2% va boshqa donli ekinlar - 3%. Bular orasida eng ahamiyatlisi esa bug'doydir. Uning asl vatanini Kichik Osiyo va O'rta dengiz bo'yini hamda Habashiston yassi tog'ligi hududlaridir. Bug'doy jahoning deyarli barcha davlatlarida ekladi va jam'i donli ekinlar maydonining 1/3 qismini band qilib kelmoqda. Juhonning asosiy bug'doyzorlari Yer sharingin birinchi «bug'doy belbog'i» hisoblanadigan Shimoliy yarimsharning o'rta kengqliklari bo'ylab tarqalgan. Bu kengqliklarda joylashgan AQSH, Kanada, Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, Xitoy jahon ning eng yirik bug'doy yetishtiruvchi mamlakatlari hisoblanadi. Sholi ekinlaring dunyoning issiq va suv yetarli hududlari bo'ylab tarqalishi uning muhim xususiyati hisoblanadi. Hozirgi vaqtida Sharqiy, Janubiy va Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari jahon yalpi sholi hosilining 9/10 qismini yetishtirmoqda. Umuman, dunyo dagi barcha sug'oriladigan ekin maydonlarining 2/3 qismida sholi ekladi.

90. Texnika ekinlari -sanoatning turli tarmoqlari uchun xom-ashyo beradigan qishloq xo'jaligi o'simliklaridir. Aholi tomonidan iste'mol qilinadigan moyning 2/3 qismi soya, kungabajar, yeryong'oq, chigitva boshqalardan olinadi. Soya yetishtirishda - AQSH (jahon soyasining yarmi), Braziliya, Argentina, Xitoy; yeryong'oq yetishti rishda - Hindiston; kungabajar yetishtirishda - Rossiya, Ukraina; zaytun yetishtirishda Italiya, Ispaniya alohida ajralib turadi. ilidizmevalillardan kartoshka yetishtirishda Rossiya, Polsha, Xitoy eng yirik mamlakatlardandir. Dunyoda yiliga 3200 mln.t kartoshka yetishtiriladi Qandlavlagi, asosan, qand-shakar olishda ishlatalidi va uni yetishtirishda Ukraina, Fransiya, Rossiya yetakchilik qiladi. Qand lavlagi yiliga 300mln.t Shakarqamish Hindiston, Braziliya, Kubada ko'p yetishtiriladi. Choy(Hindiston, Xitoy, Shri-Lanka), kofe(braziliya, kolumbiya, Mek sika), kakao (Gvineya qo'litiqbo'y davlatlari) quvvat beruvchi shifobaxsh ekin lardandir. Jahona 80 dan ortiq mamlakatlarda paxta eklilib, yiliga o'rtacha 17-18 mln. t tola ishlab chiqariladi. Xitoy, AQSH, Hindiston, Pokiston, O'zbekiston eng ko'p paxtex yetishtiradigan davlatlardan hisoblanadi. Paxta tolasini eksport qilishda esa AQSH, Pokiston, O'zbekiston yetakchilik qiladi.

91. Sabzavotchilikka sabzi, piyoz, turp, sholg'om,pomidor, qalampir va boshqalar kiradi. Barcha davlatlarda shaharlar atrofida yaxshi rivojlangan. Шаркй Европада— Болгария, Венгрия, Руминияда ривожланган, бу ерда етишириладиган сабзавотлар-нинг аксарият кисми экспорт килинади. Италия, Нидерландия(асосан, ёник ерларга экиш ривожланган), Испания, Франция(жон бошига йиллик сабзавот-лар истеъмоли 150—200 кг ни ташкиллатди). Буюк Британия, ГФР, Польша ваф мамлакатларда С. катта майдонларни узалайди. С. АКШ, Япония, Xitoy, Meksika, Afrika мамлакатларда муҳимурinda туради. Poliz ekinlari tarvuz qovun, xadalak, bodring, qovoq, kiradi bularning hammasi issiqsevar (bodringdan tashqari) ekinlar bo'lib, mo'tadil mintaqaning janubiy qismlarida, subtropik va tropik mintaqalarida yetishtiriladi. Afrikanning janubiy tropik mintaqalarida yavvoi tarvuzlar yetishtiriladi. Poliz ekinlari Osiё, Afrika va Amerikanning tropik va subtropik мамлакатларидан таркалган. Xоз. даврда барча китъаларда экиласди. Ўрга Осиё, Закавказье, Украина, АКШ, Болгария, Испанияда кўп етиш-тирила-ди.

